

O'ZBEKISTON AHOLISIDA IQTISODIY MUOMMOLARNING IJTIMOIIY HAYOTDAGI O'RNI

Mirzaliyev Ulug'bek

Tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori dotsent

Rajabova Hulkaroy

*Guliston davlat pedagogika instituti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi
3-bosqich talabasi*

Jahon banki O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yo'lidagi asosiy muammolar va imkoniyatlar tahlil qilingan yangi tadqiqotini e'lon qildi. Bu haqda Jahon banki matbuot xizmati ma'lum qildi.

Unda xususiy sektor o'sishi yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini cheklash, inson kapitalini rivojlantirish va mamlakatning yashil iqtisodiyotga o'tishi bo'yicha rasmiylar uchun tavsiyalar mavjud.

Hisobot Jahon banki guruhi va mamlakat hukumati o'rtasidagi 2022–2026-yillarga mo'ljallangan hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

2022-yil aprel oyida Jahon banki guruhi (JBG) O'zbekiston iqtisodiyoti bo'yicha ikkinchi tizimli diagnostikasini (MTD) yakunladi.

Bunday turdagi birinchi hisobot 2016-yilda e'lon qilingan edi. Shunga o'xshash hujjat Jahon banki guruhining hamkor mamlakatlari uchun har besh yilda bir marta tayyorlanadi.

Unda kambag'allikka barham berish va ijtimoiy farovonlikni oshirish yo'lidagi asosiy muammolar va imkoniyatlar tahlil qilingan.

MTDda ta'kidlanganidek, O'zbekiston yuqoridagi maqsadlarga erishishida quyidagi to'rtta yo'nalishda rivojlanish yordam berish mumkin:

1. xususiy sektorning o'sishini rag'batlantirish va barqaror ish o'rinlarini yaratish;
2. davlatning iqtisodiyotdagi rolini isloh qilish;
3. fuqarolar manfaatlariga va inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladigan dasturlarga investitsiya qilish;
4. ekologik barqaror kelajakni barpo etish.

MTD rivojlanish to'rtta yo'nalishlar doirasida 13 ta ustuvor islohotni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Ular hukumat, Jahon banki va O'zbekistonning boshqa xalqaro rivojlanish masalalari bo'yicha hamkorlari tomonidan o'tkazilgan tahlillar, shuningdek, iqtisodiyoti o'tish davridagi boshqa mamlakatlar tajribasi asosida aniqlangan.

Hisobotda rasmiylar uchun tavsiyalar berilgan va yuqorida keltirilgan yo'nalishlarda quyidagi ustuvor islohotlarga e'tibor qaratish zarurligi qayd etilgan.

Davlat ko'magi bilan mamlakatda bozor iqtisodiyotini rivojlantirish uchun:

- davlatning tovar va xizmatlarning asosiy ishlab chiqaruvchisi funksiyalaridan bozorni rivojlantirishni rag'batlantiradigan funksiyalariga o'tkazib, uning rolini transformatsiya qilishni jadallashtirish;

- davlat korxonalarining iqtisodiyotdagi ulushini kamaytirish va ularning samaradorligini oshirish; zarur ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish va turli hokimiyat organlarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;

- davlat funksiyalarini markazsizlashtirishni davom ettirish;

- davlat organlarining fuqarolar oldidagi hisobdorligini oshirish zarur.

Mamlakatda inson kapitalini rivojlantirish uchun:

- ta'lim tizimi faoliyatidagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish orqali uning sifatini oshirish;

- maktabgacha ta'lim va oliy ta'lim muassasalariga kirish imkoniyatini yaxshilash;

- sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini va fuqarolar uchun undan foydalanish imkoniyatini oshirish;

- butun mamlakat bo'ylab suv ta'minoti va sanitariya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

- kambag'allikni o'lchash tizimini, unga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlarini va ularning maqsadlilikini takomillashtirish;

- aholining zaif qatlamlarining mehnat bozorida keng ishtirokini rag'batlantiruvchi davlat siyosatini ishlab chiqish;

- ijtimoiy himoya tizimi samaradorligini oshirish va u bilan aholining muhtoj qatlamlarini qamrab olish kerak.

Mamlakatning ekologik barqaror kelajagini barpo etish uchun:

- tabiiy resurslarni, jumladan, suv va yer resurslarini samaraliroq boshqarish;

- atmosferaga issiqxona gazlari chiqindilarini yanada kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini, shu jumladan energetika sohasini modernizatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish;

- tabiiy ofatlar xavfini boshqarish tizimini takomillashtirish lozim.

Avvalroq Jahon bankiga ko'ra dunyoda 1970-yillardan beri eng katta narx inqirozi boshlangani haqida xabar berilgan edi.

Ta'lim sifatining pastligi, yangi ish o'rinlarini yaratish masalasi, bozor iqtisodiyoti tizimiga o'tish jarayoni, ekologik muammolar, jahondagi raqobat muhiti O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish yo'lidagi muammolardir. Bu haqida milliy barqaror rivojlanish maqsadlari yuzasidan BMT vakilliklari, elchixonalar va hukumat organlarining hamkorlik uchrashuvida ma'lum qilindi.

Hamkorlik uchrashuvi doirasida hukumat vakillari O'zbekistonda milliy barqaror rivojlanish maqsadlarining amalga oshirilishi borasida bajarilayotgan ishlar haqida ma'lumot berdi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti vakillari esa o'z tavsiyalarini ma'lum qilishdi.

Iqtisodiyot va sanoat vazirligi vakili Ilhom Mamatqulovning bayon qilishicha, “O‘zbekistonni 2030 yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish” konsepsiyasida milliy barqaror rivojlanish maqsadlari yo‘lida qilinadigan ishlar belgilab olingan. Xususan, bozor iqtisodiyoti tizimiga o‘tishni tezlashtirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, ijtimoiy himoyaning samarador mexanizmlarini joriy qilish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, ekologik siyosatni to‘g‘ri olib borish kabi vazifalar qo‘yilgan.

BMTning hamkorlik dasturiga asosan, 2030 yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlari har bir shaxsning qiziqishini inobatga olish, inson huquqlarini ta‘minlash, gender tengligi va ayollar uchun imkoniyatlarning kengaytirilishi, tashqi ta‘silarga chidamlilik, barqarorlik, hisobdorlik prinsiplari asosida amalga oshirilishi lozim.

BMT taraqqiyot dasturining O‘zbekistondagi doimiy vakili Matilda Dimovskaning qayd etishicha, O‘zbekistonda davlat boshqaruvi samaradorligini ta‘minlash uchun hukumat qarorlar qabul qilishda marginal guruhlar (turli ijtimoiy guruhlar oralig‘idagi shaxslar jamoasi)ning fikrlari va ehtiyojlarini inobatga olishi lozim. “Shuningdek, hukumat taraqqiyot dasturi doirasidagi hamkorlari bilan doimiy ravishda muhokamalar o‘tkazishi, erishilgan yutuq va kamchiliklarni tahlil etib, berilgan tavsiyalar asosida ish ko‘rishi lozim”, – deydi Dimovska xonim.

Dimovskaning qayd etishicha, O‘zbekistonda turli hududlarda daromad ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi sezilarli farq saqlanib qolmoqda. Ishchi kuchining arzon va ko‘pligiga qaramay, malakali mutaxassisga bo‘lgan talab qondirilmayapti. Sifat ko‘rsatkichlarini belgilashdagi muammolar mamlakatdagi kichik biznes vakillarining Yevropa davlatlariga eksportni amalga oshirishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatyapti. Investitsiyani jalb qilish va kichik biznes sub'yektlarini rivojlantirish masalasi hududlarda infratuzilmani yaxshilash (energiya va suv ta‘minoti, transport masalasi)ga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

BMTning O‘zbekistondagi doimiy koordinatori Helena Freyzerning qayd etishicha, milliy barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda statistik ma‘lumotlarni aniqlik va xolislik prinsipi asosida jamlash, natijalar monitoringini xolis olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasida kambag‘allikka qarshi kurash iqtisodiy rivojlanish siyosatimizda ustuvor vazifa etib belgilandi.

«Kambag‘allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir», deb ta‘kidlangan edi murojaatda.

Iqtisodiyot qonunlariga asosan, «kambag‘allik kambag‘allikni keltirib chiqaradi». Mazkur jarayon bir necha sabablarga ko‘ra sodir bo‘ladi.

Birinchidan, daromadlari past mamlakatlar sifatli ta‘lim va sog‘liqni saqlash uchun yetarlicha pul sarflay olishmaydi, kambag‘al aholi esa sifatli pullik ta‘lim va

tibbiyot xizmatlarga qurbi yetmasligi sababli inson salohiyati pasayib, kambag'allikdan qochib qutula olmaydilar.

Ikkinchidan, kambag'al aholining daromadlari pasayib borgan sari, iste'mol bozorining sig'imi mutanosib ravishda kichrayib boradi va buning natijasida sanoat mollari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va ayniqsa, xizmatlarga bo'lgan talab pasayib boradi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy taraqqiyotga to'sqinlik qiladi, budjet daromadlarini kamaytiradi va kambag'allarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash imkoniyatini kamaytirib yopiq siklik jarayon ko'rinishiga keladi.

Uchinchidan, aksariyat hollarda kambag'allarning dunyoqarashi daromad yuqori bo'lganlardan farq qiladi. Yuqorida aytib o'tilgan sabablarga ko'ra, ular orasidan ijodkor va tadbirkorlik qobiliyatiga ega insonlarning yetishib chiqishi ehtimoli kamroq. Shuningdek, odatda kambag'al oila a'zolari orasida jinoyatchilik ko'rsatkichlari nisbatan yuqoriroq bo'ladi.

Boshqacha qilib aytganda, kambag'allikni keltirib chiqaruvchi omillar mamlakatda inson salohiyatini rivojlantirishga, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va aholining iqtisodiy faoliyatiga to'sqinlik qiladi.

O'zbekistonda oxirgi uch yil mobaynida kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida aholi jon boshiga real jami daromad 43,9 foizga, o'rtacha hisoblangan nominal oylik ish haqi 79,7 foizga yoki 2016 yildagi 1293,8 ming so'mdan 2019 yilda 2324,5 ming so'mga oshdi.

Jahon bankining «O'zbekiston fuqarolarini tinglab» loyihasi doirasida, uy xo'jaliklari orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, 2020 yilning yanvar-mart oylari uchun o'rtacha kambag'al xonadonning oylik daromadi taxminan 1,5 million so'mni tashkil etib, taqqoslama narxlarda bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12 foizga oshgan.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekistondagi kambag'allikni bartaraf etish muammosini strategik vazifa sifatida kun tartibiga qo'ydi.

Mazkur muammoni hal qilishga hukumat tomonidan katta hajmdagi sa'y-harakatlar qaratilgan. Jumladan, mamlakatda kambag'allikka qarshi kurashish uchun zarur institutlar yaratildi. Bu avvalambor Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining tashkil etilishi, kambag'allikka qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosatini belgilab beradi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida yaqinda Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi. Mazkur vazirlik fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish institutlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi mas'ul davlat organi sifatida ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan qatlamlarini aniqlash va manzilli ko'mak berish borasida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, aholining turmush sharoitlarini yaxshilash va qishloq joylarini obodonlashtirish dasturlari amalga oshirilmoqda. Xususan, «Obod qishloq»

dasturining amalga oshirilishi tufayli 1,7 mln qishloq aholisining yashash sharoitlari yaxshilandi. Birgina 2019 yilda «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlarini amalga oshirish uchun jami 600 million AQSh dollariga teng 6,1 trln so'm ajratildi.

Biroq, erishilgan natijalarga qaramay, hozirgi kunda O'zbekistonda 400 mingdan ortiq oila turmush sharoitlari yaxshilanishiga muhtoj (Jahon banki mezonlariga ko'ra, 2015 yil oktyabridan boshlab Global kambag'allik darajasiga kuniga 1,9 AQSh dollardan kam daromad olganlar kiritilgan). Norasmiy sektorning mehnat bozorida ulushi 40-50foizni tashkil etadi. Biroq, kambag'al uy xo'jaliklarining faqat 23 foizigina ijtimoiy nafaqa olishadi.

Pandemiya davrida aholining kambag'al va eng zaif qatlamlariga ijtimoiy va moddiy yordam ko'rsatuvchi muassasalar faoliyatini isloh qilish zarurati kuchaydi. Shu bois bu muammolarni hal qilish jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Moddiy yordamni taqsimlashda kerakli nazorat, shaffoflik va manzillilikni ta'minlash maqsadida raqamli texnologiyalar asosidagi tizimli yechimlarni joriy qilish asosida avval yetarlicha manzilli bo'lmagan va samarasiz tizimdan yangi tizimga o'tilmoqda.

Ijtimoiy model

O'zbekiston ijtimoiy yo'naltirilgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Bunday mamlakatlarda davlat jamiyat hayotidagi ishtiroki ancha muhim bo'lib, u o'z fuqarolari oldidagi ijtimoiy majburiyatlarini keng ko'lamda amalga oshirilishini nazarda tutadi. Bu esa jamiyatning ijtimoiy zaif qatlamlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Kuchli ijtimoiy siyosat degani davlat institutlari tomonidan ijtimoiy ne'matlarni jamiyatning eng kam himoyalangan va eng zaif a'zolari foydasiga taqsimlash demakdir. O'tgan yillar davomida O'zbekistonda boshqa ko'plab mamlakatlardan farqli o'laroq, kuchli ijtimoiy siyosat amalga oshirilgani shubha ostiga olinmay kelinmoqda. Boshqacha qilib aytganda, O'zbekistonda haqiqatan ham ijtimoiy adolat tushunchasiga mos keladigan davlat siyosati modeli tanlanganini ta'kidlash mumkin. Nima uchun bunday bo'ldi?

Ming yillar davomida xalqimiz yashab turgan zaminimizda odamlar bir-biriga yordam berishi, og'ir hayotiy vaziyatlarda qolgan qashshoq va zaif aholi qo'ni-qo'shni, mahalla va jamiyatdan madad olishi lozim, degan an'anaviy dunyoqarash shakllangan. O'zbekistonda ijtimoiy shartnoma ijtimoiy axloqning ko'p asrlik tamoyillariga asoslangan.

Shunday bo'lsa-da, uzoq vaqt davomida, kambag'allikning mavjudligi siyosiy sabablarga ko'ra rasmiy darajada deyarli tan olinmagan, kambag'allikni aniqlashning qonuniy tasdiqlangan mezonlari yo'q edi, bu holda samarali ijtimoiy siyosat olib borish juda mushkul masala edi. Biroq, kambag'allik muammosi yo'qolmadi, hatto 2007 yilda uni bartaraf etish uchun tegishli strategiyani ishlab chiqishga harakat qilindi. BMTTD, Jahon banki va OTB bilan birgalikda «2008-2010 yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisi farovonligini oshirish strategiyasi» ishlab chiqildi. Biroq tan olish kerak, yaqin

davrgacha mahalla qo'mitalari orqali kambag'allarni real ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida tub o'zgarishlar amalga oshirilmadi.

Aniqlangan kamchiliklar

2017 yilda O'zbekiston Respublikasi prezidentining xalq qabulxonalari ochilgach, fuqarolarning murojaatlari qabul qilinib, diqqat bilan tahlil etilgach, bu sohaning yetarli darajada samarali faoliyat ko'rsatmayotgani va chuqur islohotga muhtojligi sezildi.

Xalq qabulxonalari faoliyat yuritib boshlagan kundan bugungi kungacha

3,6 milliondan ortiq fuqarolarning prezidentga murojaatlari qabul qilinib, ularda turmush darajasi, aholi bandligi, uy-joy, sifatli davlat xizmatlari, sog'liqni saqlash va ta'lim bilan bog'liq ko'plab muammolar bayon qilingan.

Ko'tarilgan masalalarning aksariyati fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimidagi kamchiliklar, aholining kam ta'minlangan va zaif qatlamlariga yordam ko'rsatish bilan bog'liq bo'lib, bu borada fuqarolardan ko'plab shikoyatlar kelib tushgan.

Bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, moddiy yordam ko'rsatish mexanizmi hali ham Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 15 fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan «Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizom» bilan belgilanadi. Ushbu qoidaga muvofiq, bolali oilalarga nafaqalar, bola parvarishi bo'yicha nafaqa va moddiy yordam tayinlash va to'lash to'g'risidagi qaror qabul qilishga vakolatli mahalla fuqarolar yig'ini yoki komissiyaga belgilangan. Komissiya fuqarolar yig'ini raisi boshchiligida fuqarolar yig'ini tomonidan saylanib kelgan. Komissiya a'zolari 2 yil muddatga, fuqarolar yig'ini raisi esa – o'z vakolatlarining butun muddati davomida saylangan. Ushbu komissiya a'zolarining soni kamida 15 kishini tashkil etishi lozim.

Mazkur mexanizm, komissiya a'zolari o'zlari yashayotgan mahallalarda qo'llab-quvvatlanishga muhtoj aholini bilgan holda obektiv qarorlar qabul qilishni nazarda tutadi. Ammo, boshqa tomondan, jamoaviy qaror qabul qilishning bunday mexanizmi juda murakkab, yetarlicha shaffof emasligi va berilgan vakolatlar suiiste'mol qilinishini istisno qilmaydi, ayniqsa, ko'plab jarayonlar ortiqcha hujjatlar va sertifikatlar taqdim etilishini talab qiladi. Balki shuning uchundir, ijtimoiy yordam ajratish mexanizmidagi qiyinchiliklar va kamchiliklar ta'sirida Prezident qabulxonalariga samarasiz yoki hatto adolatsiz moddiy yordam ajratish amaliyotlar haqida murojaatlar soni oshib ketishiga olib keldi.

XULOSA

Mamlakatdagi kambag'allikni bartaraf etish yo'llaridan biri bo'lgan – ijtimoiy himoya samaradorligini oshirish faqatgina kompleks yondoshuvlar orqaligina amalga oshirilishi mumkin.

So'nggi yillarda kambag'allikni yengishga hissa qo'shadigan boshqa sohalarda ham salmoqli sa'y-harakatlar amalga oshirildi. Ularga yangi ish o'rinlari yaratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, qishloq joylari va qishloq xo'jaligini rivojlantirish,

qishloq joylarda infratuzilmani takomillashtirish, sog'liqni saqlash, kasb-hunar ta'limi va tarbiyasini yaxshilash hamda iqtisodiy migratsiya kiradi. Bu sohalarda oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlar mamlakatimizning uzoq muddatli kambag'allikni qisqartirish dasturining muhim qismi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Demografiya.uz
- 2.Kun.uz.
- 3.Daryo.uz.